



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



**GOSPITAL PEDAGOGIKA SOHASIDAGI DOLZARB MASALALAR, ILG'OR
TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLAR**

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ В
ОБЛАСТИ ГОСПИТАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ**

международная научно – практическая конференция

**CURRENT ISSUES, ADVANCED EXPERIENCES AND PROSPECTS IN THE
FIELD OF HOSPITAL PEDAGOGY**

international scientific - practical conference



3-dekabr 2024-yil



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

**GOSPITAL PEDAGOGIKA SOHASIDAGI
DOLZARB MASALALAR, ILG'OR
TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLAR**
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПЕРЕДОВОЙ
ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ В ОБЛАСТИ
ГОСПИТАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ**
международная научно – практическая конференция

**CURRENT ISSUES, ADVANCED EXPERIENCES
AND PROSPECTS IN THE FIELD OF HOSPITAL
PEDAGOGY**
international scientific - practical conference

203.	Юлдашева Гулшад Тилеуовна Пономаренко Вероника Павловна	ВЛИЯНИЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ НА МОТИВАЦИЮ УЧАЩИХСЯ В ИЗУЧЕНИИ ИНФОРМАТИКИ: ИГРОВЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ (БАЛЛЫ, УРОВНИ, ДОСТИЖЕНИЯ) ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ	945
204.	Xolmo'minov G'ofur Bobonazarovich Narzullayeva Nilufar Umidjon qizi	QADIMGI SHARQDA FALSAFIY BILIMLARNING PAYDO BO'LISHI	951
205.	Туганова Луиза Джураевна Бегалиева Шахзода Бекниязовна	РОЛЬ РЕЛИГИИ В НАЦИОНАЛЬНОМ СОЗНАНИИ И НАЦИОНАЛЬНОМ САМОСОЗНАНИИ	954
206.	Usmonova Rayhona Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna	IJTIMOIY TARMOQDAGI TAHIDLAR	960
207.	Koshanova Nilufar Maxsudovna	MADANIYAT- JAMIYATNING MAVJUDLIK ASOSI VA YASHASH USULI SIFATIDA	965
208.	Turgunova Nargiza A'zamjon qizi Koshanova Nilufar Maxsudovna	ISLOMDA KASB ODOBLARI	971
209.	Boltaboyeva Mukarramxon Koshanova Nilufar Maxsudovna	ISLOM -MA'RIFATPARVAR DIN SIFATIDA	974
210.	Tojiyev Erali Xoshim O'g'li Koshanova Nilufar Maxsudovna	ISLOM MA'RIFATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO ISLOM AKADEMIYASINING O'RNI	979
211.	Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna Bahodirova Mashhura Zafarovna	UMUMIY ORTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM JARAYONIDA QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH	986
212.	Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna Ikromova Muqaddas	UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM JARAYONIDA QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH	991

213.	Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna	TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOG KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	996
214.	Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna	YOSHLARNING INTELEKTUAL SALOHİYATINI ORTIRISHNING BOSH OMILI	1000
215.	Ergashev Shirinbobo Xotam o'g'li	NUTQ SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH VA MAZMUNI	1005
216.	Ziyaboyeva Hilola Rixstillayevna	O'ZBEKİSTONDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	1012
217.	Badalmatova Ziyoda G'ofurjonovna	MA'NAVIY MEROSNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	1017
218.	Xamidova Feruza Shamsiddinovna	OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKILANTIRISH	1025
219.	Abdullayeva Malika Bazarbayevna	BITIRUVCHI KURS TALABALARINING MA'NAVIY VA MADANIY FAOLLIGINI OSHIRISH	1030
220.	Gulmatova Shohsanam Diyor qizi	TALABALAR ORASIDA ZARARLI ILLATLARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR	1034
221.	Rashidova Gulandom Mirzayakubovna	TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA TALABALARING FAOLLIGI	1038
222.	Tashmuhammedova Ilmira Suyundikovna	OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY MA'RIFIY TADBIRLAR O'TKAZISHNING MOHIYATI	1040
223.	Maxanova Aliya Muratovna	BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISH TALABALARIDA PSIXOLOGIK KOMPITETNLIKNI SHAKLLANTIRISH TAMOILLARI	1044

kabi ishni qilish katta gunoh hisoblanadi. Chunki shifokorlik kasbini bilmaslik asosida qancha insonlar hayotiga, sog'ligiga xavf solinsa, o'qituvchi -pedagog o'z kasbiga noloyiq bo'lsa minglab xalq farzandini savodsiz qilib qo'yadi. Demak, jamiyatda har bir inson kasbni o'z qobiliyatidan kelib chiqqan holda ongli ravishda tanlashi va unga ma'suliyat bilan yondashishi, jamiyat taraqqiyotida muhim hisoblanadi. Zero mehnat orqali inson o`zining va o`zgalarning qadrini biladi, mehnatsiz kelgan boylik inson rihiyatini buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2024.
https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Miliy%20Ensiklopediyasi%20-%20Qo'shimcha.pdf
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ijtimoiy odoblar” Toshkent: “Hilol nashr”, 2024.
3. G.K.Masharipova Kasbiy ma'naviyat. “Fan ziyosi”, T.:2022.-B.259.
- 4.Doktor Muhammad Bo'zdag' “Qalbimdasan, Alloh” Toshkent: “Zumar books”, 2023.

ISLOM -MA'RIFATPARVAR DIN SIFATIDA

Boltaboyeva Mukarramxon

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti

Fizika va kimyo fakulteti fizika va astronomiya 23-3guruh talabasi

mukarramkhon2006@gmail.com

Ilmiy rahbar: Koshanova Nilufar Maxsudovna

CHDPU dotsenti

koshanovnilufar512@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda islomning ma'rifatparvarlik jihatlari, islomda ta'limga bo'lgan munosabat, islom g'oyalarining inson kamolotidagi o'rnini

va ahamiyati o`rganilgan, shuningdek, islom ma`rifatchiligining jamiyat taraqqiyotida tutgan o`rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Islom, ma`rifat, ilm, tafakkur, Qur’on, hadis, axloq, jamiyat, ilm-fan, ijtimoiy taraqqiyot.

Kirish. Islom dini ilm olishni, tafakkur qilishni va ma`rifatni jamiyatning ajralmas qismi sifatida qaraydi. Qur’on va hadislар orqali Islom nafaqat ibodat dini, balki insonlarni ilm olish va yaxshi axloqqa chaqiruvchi ma`rifatparvar din sifatida shakllangan. Qur’oni Karimning ilk nozil bo‘lgan oyatlaridan biri – “Iqro” (“O‘qi!”) insonni bilimga va o‘rganishga chaqiradi[1]. Islomning birinchi farzi bilim olish, bu esa barcha musulmonlarga ta’kidlangan. Nabiy Muhammad (s.a.v.) hadislarida ilm olishning ahamiyati va fazilati haqida so‘z yuritiladi: “Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir.”[2]. Islom ilmni dunyo va oxirat baxtiga erishishning vositasi sifatida ko‘radi. O‘rta asrlar davomida musulmon olimlari, masalan, Ibn Sino, Al-Khwarizmi va Al-Farg‘oniy kabi ilmiy kashfiyotlari bilan jahon ilm-faniga katta hissa qo‘shgan. Ular tibbiyot, matematika, astronomiya va boshqa sohalarda ilg‘or tadqiqotlar olib borganlar. Bu ilmiy yutuqlar Islomning ilmga bo‘lgan ijobiy ta’siri va uning ma`rifatparvarlik tamoyillarining amalda qo‘llanilishi sifatida namoyon bo‘lgan. Islom ilm va axloqni birlashtirgan din hisoblanadi. Ilm olish, faqat bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki shu bilimlarni axloqan to‘g‘ri yo‘llarda ishlatishni anglatadi. Islomda ilmning o‘rni shundaki, u nafaqat insonning dunyoviy hayotini o‘zgartiradi, balki uning ma’naviy yuksalishiga ham hissa qo‘shadi.

Bugungi kunda Islomning ilm va ma`rifatga asoslangan tamoyillari dunyoda ijtimoiy taraqqiyot va tinchlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ilmiy yutuqlarni jamiyat manfaatiga yo‘naltirish, ilm olishda mushtarak maqsadni ko‘zlash, musulmonlarning zamonaviy dunyoda erishgan yutuqlarini aks ettiradi. Bu tamoyillar jahon miqyosida Islomning ma`rifatparvar din sifatida e’tirof etilishiga olib kelmoqda. Endi esa bir qancha ulamolarimiz hayotidan na’munalar keltirsak: Imam Buxoriyning “Sahih al-Buxoriy” asari islom hadislarini o‘z ichiga olgan eng ishonchli manbalardan biridir. Ushbu asarda bilim olish va ilmning fazilati haqida

ko‘plab hadislar keltirilgan bo`lib, “*Ilm izlash har bir musulmon erkak va ayolga farzdir*”,-deyilgan. [1] Bu hadis ilmning har bir inson uchun zarurligini va uning dinning muhim qismi ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Imom Buxoriy hadislarni mavzular bo‘yicha ajratgan. Ilmning fazilati haqidagi bobda quyidagi mazmundagi hadislar ham uchraydi: “*Kim ilm izlash yo‘lida yursa, Alloh unga jannat sari yo‘lni oson qiladi.*” Bu hadis Islomda ilmning fazilati qanchalik ulug‘ ekanligini ko‘rsatadi. “*Odamlar ichida eng yaxshi kishi – o‘rganib, boshqalarga o‘rgatgan kishidir*” [2]. Mazkur hadis ilmni faqat o‘rganib qolmasdan, uni boshqalarga o‘rgatish muhimligini anglatadi.

Renessans davri mutafakkirlarining ilm-ma’rifat xususidagi fikrlari ham g’oyatda qimmatlidir. Xususan, Ibn Sino ilm-ma’rifat va bilimning ahamiyati haqida chuqur fikrlar bildirgan, ayniqsa, uning ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi bu boradagi qarashlarini yaqqol namoyon etadi. Qomusiy olim falsafiy asarlarida ilmni inson hayotining eng muhim tamoyillaridan biri sifatida ta’riflagan holda, ilmni haqiqatni anglash va Allohning yaratilgan olamini idrok qilish vositasi deb bilgan. U bilim insonni johillikdan qutqarishi va ruhiy kamolot sari yetaklashi bilan birga, ilm olish orqali inson o‘zining haqiqiy mohiyatini va yaratilishining maqsadini anglashini ta’kidlaydi. Ibn Sino ilm va dinni bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida ko‘rgan. U ilm-fanni diniy bilimlardan ajratmagan va Qur’onning ilmga bo‘lgan chaqiriqlarini amaliyatda qo‘llash kerakligini ta’kidlab “*Ilm – bu Allohning hikmatiga yo‘l ochuvchi nурdir*”-deydi. Uning fikricha, ilm faqat bilim olishdan iborat bo‘lmasdan uni tarbiyalashi ham lozim. Xususan, u “*Ilm odamni mukammallashtiradi, ammo faqat yaxshi axloq bilan birgalikda u insonni haqiqiy yuksaklikka olib chiqadi*”-deydi.

Ibn Sino ilm-fanni nafaqat nazariy bilimlar, balki jamiyatga xizmat qiluvchi amaliy vosita sifatida ko‘rgan. U o‘zining “Tib qonunlari” kabi asarlarida ilmni inson salomatligi va jamiyat farovonligini ta’minalash muhimligini ta’kidlagan.[3]

Yana bir qomusiy mutafakkirlarimizdan Muso Al-Xorazmiy (780–850), mashhur matematik va astronom, o‘zining ilmiy yutuqlari bilan nafaqat islom dunyosida va undan tashqarida tanilgan olimdir. U matematika, ayniqsa algebra

asoslarini yaratishda katta rol o‘ynagan. Al-Xorazmiy o‘z ilmiy faoliyatida islom dini asoslariga suyanib, ilmni Allohn ni anglash vositasi sifatida ta’riflagan. Xorazmiy ilmni islom dini tamoyillariga mos tarzda rivojlantirish tarafdoi bo‘lib, Qur’onning “*tafakkur qiling*”, “*o ‘rganing*” kabi chaqiriqlarini asos qilib olgan holda, ilm olishni dinning ajralmas qismi deb bilgan. U “*Ilm Allohning yaratilishidagi hikmatni anglash uchun kalitdir*”-deydi. U Qur’onda keltirilgan sonlar va tafakkurga asoslangan oyatlarni matematikaga yo‘naltiruvchi ilohiy ilhom deb hisoblagan. Shuni alohida ta’kidlashimiz lozimki, uning matematik kashfiyotlari, ayniqsa, algebra (al-jabr) va geometriya musulmon jamiyatidagi amaliy masalalarni hal qilishda muhim rol o‘ynadi. Jumladan, namoz vaqtлari hisoblash, Quyosh va oy harakatlari asosida namoz vaqtlarini aniq belgilash, qibla yo‘nalishini topish, yerning shakli va geografik hisoblashlar asosida qiblani aniqlash usullarining yaratilishiga sabab bo`ladi. Uning ilmiy yutuqlari asosida islomiy qonunlar asosida moliyaviy hisoblarni amalga oshirish osonlashgan. Al-Xorazmiy Islom dinida ilmning yuksak o‘rni borligini ta’kidlagan. U ilmni insonni johillikdan qutqaruvchi va uni Allohg a yaqinlashtiruvchi vosita sifatida bilib, har bir inson ilm olish orqali o‘zining diniy va dunyoviy hayotini yanada mukammallashtirishi lozimligini ta’kidlaydi.

Al-Xorazmiy Qur’on va hadislarni anglash uchun matematik va ilmiy bilimlarni zarur deb hisoblagan. U din va ilmni qarama-qarshi qo‘ymagan, balki ular bir-birini to‘ldiruvchi asosiy omillar ekanini aytgan[4].

Buyuk islom ilohiyatshunos olimi Abu Homid al-G‘azzoliy (1058–1111) Islom olamidagi eng yirik mutafakkirlardan biri bo‘lib, uning diniy, falsafiy va ilmiy qarashlari bugungi kungacha ahamiyatli hisoblanadi. G‘azzoliy ilm, ma’rifat va axloqni Islomning asosiy tamoyillari bilan uyg‘un holda talqin qilgan. Al-G‘azzoliy o‘zining “Ihyou ulumiddin” (Diniy ilmlarni tiriltirish) asarida ilmni insonning eng yuksak fazilati deb hisoblagan. U “*Ilm har bir musulmon uchun nурdir, u Allohn tanish va Unga yaqinlashishning yo‘lidur*”-deydi. G‘azzoliy ilmni ikki qismga ajratadi:

1. Diniy ilm: Qur'on, hadis va fiqh ilmlari. Bu bilimlar insonga Allohning marhamatini anglashda yordam beradi.

2. Dunyoviy ilm: Matematika, tibbiyat va boshqa ilm-fanlar. Ularning ahamiyati inson hayotini yaxshilashda namoyon bo'ldi.

G'azzoliyning fikricha, ilm insonni faqat nazariy jihatdan boyitmasligi kerak, balki uni yaxshi amallar qilishga yetaklashi lozim. Ilohitashunos "*Ilmsiz amallar foydasiz, amalsiz ilm esa halokatlidir*", -deya haqli fikrni bildiradi. Bu fikr ilmni axloqiy asoslarda qo'llashning muhimligini ta'kidlaydi. G'azzoliy falsafiy yondashuvlarga tanqidiy qaragan bo'lsa-da, ilm-fan va falsafa o'rtaida muvozanatni saqlashni ta'kidlagan. Uningcha, falsafa va mantiq ilmlaridan foydalanish faqat diniy tamoyillarni anglashga xizmat qilishi kerak. Shuningdek, G'azzoliy ayrim g'arbiy mutafakkirlarning Islom aqidalariga zid qarashlarini rad etgan va falsafani din bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan. G'azzoliy har bir musulmon uchun ilm olish farz ekanligini ta'kidlab, quyidagi fikrlarni bildiradi: "*Inson uchun ilm olish ibodat kabi farzdir, chunki ilm orqali jaholat yo'q qilinadi.*" Uning fikricha, nafaqat diniy bilimlar, balki dunyoviy ilm-fanlarni ham o'rganish musulmon jamiyatining rivojiga xizmat qiladi[5].

Xulosa: Islom dini nafaqat ibodat dini, balki ilm va ma'rifatni qadrlovchi, insonlarni yuqori axloqiy fazilatlar va ijtimoiy barqarorlikka chaqiruvchi din sifatida ham ajralib turadi. Islomning ilmgaga bo'lgan e'tibori va uning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buxoriy I. Sahih al-Buxoriy. Ilmiy-diniy asar. / Ma'naviyat nashriyoti. T.: 1987. 45–50 b.
2. Ibn Sino. Tib qonunlari. Ilmiy-falsafiy asar. / Sharq nashriyoti. T.: 2001. 94–99 b.
3. Al-Xorazmiy M. Al-jabr va al-muqobala. Ilmiy asar. / Fan nashriyoti. T.: 1996. 12–17 b.
4. G'azzoliy A. Ilmning fazilati. Ilmiy-diniy asar. / Ma'rifat nashriyoti. T.: 2005. 58–63 b.

ISLOM MA'RIFATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO ISLOM

AKADEMIYASINING O'RNI

Tojiyev Erali Xoshim O'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Xorijiy til va adabiyot (Nemis tili) Yo'nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Koshanova Nilufar Maxsudovna

CHDPU dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasining tashkil qilinishi sabablari, maqsad va vazifalari, hamda Islom ma'rifatini targ'ib qilishdagi roli haqida mushohada qilingan.

Kalit so'zlar: ilm, ma'rifat, bag'rikenglik, Xalqaro Islom Akademiyasi, «jaholatga qarshi ma'rifat», axborot xavfsizligi

Abstract: This article examines the reasons for the establishment of the International Islamic Academy of Uzbekistan, its goals and objectives, and its role in promoting Islamic enlightenment.

Keywords: science, enlightenment, tolerance, International Islamic Academy, "enlightenment against ignorance", information security.

Islom dunyoda ming yillardan oshiq vaqt davomida insonlarni haq yo`liga boshlab, ilm-ma'rifatning keng yoyilishida sabab bo`lib kelayotgan jaxon dinidir. Islomda ilm bu farz bo`lib, ibodatdan ham ustun qo'yilgan. Qur'oni Karimda ilm so`zining 752 marta takrorlanishi dinda naqadar ilm-ma'rifatga yuksak darajada e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi. Ammo afsuski, dindan o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshirishda foydalanayotgan kuchlar uning asl mohiyatini buzib o`z manfaatlariga moslashtirib olmoqdalar. Bunga misol tariqasida dunyoda 500 dan ortiq ektremistik tashkilotlarning mavjudligi, ularning ko`pchiligi islom eksteremistik tashkilotlari ekanligi, ammo bu tashkilotlarning ortida noislomiy mamlakatlar va noislomiy kuchlar turganligi dunyoda mafkuraviy kurash ketayotganligidan dalolat beradi.